

## MAPLE TIZIMINING FUNKSIYA VA OPERATORLARI, SIMVOLLI HISOBLASHLAR

**B.B. Ahmedov**

*Farg`ona Davlat Universiteti, fizika kafedrasи o`qituvchisi.*

*abb90@mail.ru*

**S.O. Jo`rayev**

*Farg`ona Davlat Universiteti M21-02 guruh magistranti*

*[sarvarbekjorayev47@gmail.com](mailto:sarvarbekjorayev47@gmail.com)*

### **Maple tizimining funksiya va operatorlari**

Matematikada bo'lgani singari Maple tizimida ham funksiya tushunchasi asosiy tushunchalardan biri bo'lib hisoblanadi. Funksiya boshlang'ich ma'lumotlarni (funksiya parametrlarini) o'zgartirish natijalarini qaytaradi. Maple juda ko'p biriktirilgan funksiyalarga ega. Ifodalarda funksiya nomi va qavs ichiga olingan parametrlari bilan ko'rsatiladi. Maplening standart funksiyalari Basic va Turbo Pascal dasturlash tillarining standart funksiyalari kabi ishlatiladi. Masalan  $\sqrt{5}$  kvadrat ildizni hisoblash funksiyasidir. Unga murojaat qilinganda qiymatni qaytaradi. Masalan:

$> 3*\sqrt(36); 18.00000000 > 3*\sqrt(36); 18 > \sqrt(24); 4.898979486 > \sqrt(29); \sqrt{29}$   
 $> \sin(2); (\ ) \sin^2 > \operatorname{evalf}(\sin(2)); .9092974268 > \sin(2.); .9092974268$

Ifodalardagi o'nli nuqtaga e'tibor bering. Nuqta hisoblash uchun ko'rsatma vazifasini bajarmoqda. Maple argumenti butun son bo'lgan funksiyalarni hisoblashda aniqroq qiymatlar bilan ish ko'rishni afzal deb hisoblaydi. Shuning uchun yuqorida misollarda  $\sqrt{29}$  va  $(\sin 2)$  ni qabul qilgan.

Matematik ifodalarni yozishda funksiyalardan tashqari operatorlardan ham foydalaniladi. Misol uchun + (qo'shish), - (ayrish), \*(ko'paytirish), / (bo'lish) va boshqa operatorlar mavjud. Operatorlar odatda konstanta yoki o'zgaruvchi ko'rinishidagi operandlar bilan birgalikda ishlatiladi. Eng ko'p ishlatiladigan operatorlardan biri := (o'zlashtirish operatori) o'zgaruvchilarga konkret qiymatlarni berish uchun qo'llaniladi.

Misol uchun:

$>a:=b; a := b > b:=c; b := c > c:=45; c := 45 > a; 45 > b; 45$

Ushbu misolda a, b va c o'zgaruvchilar o'zaro o'zlashtirish operatori yordamida bog'langan. Shuning uchun c o'zgaruvchiga qiymat berilganda a va b o'zgaruvchilar ham o'sha qiymatni qabul qiladi.

Keng tarqalgan operatorlardan yana biri = (tenglik) operatoridir. U tenglikni (masalan  $x=y$ ), mantiqiy shartlarni, o'zgaruvchilarning o'zgarish sohalarini va funksiya hamda komandalardagi parametrlarning qiymatlarini berish uchun ishlatiladi.

## Simvolli hisoblashlar

Maple simvolli (analitik) hisoblashlar uchun katta imkoniyatlarni beradi. Quyidagi sodda misolni ko'raylik. Uchta parallel ulangan R1, R2, R3 va R4 rezistorlarning umumiyligi qarshiligi R0 ni aniqlash zarur bo'lzin. Avval R0 uchun tenglamani kiritamiz:

$$> \text{eq} := 1/R0 = 1/R1 + 1/R2 + 1/R3 + 1/R4;$$

$$\text{eq} := \frac{1}{R0} = \frac{1}{R1} + \frac{1}{R2} + \frac{1}{R3} + \frac{1}{R4}$$

Keyin tenglamalarni yechish funksiyasi solve yordamida R0 uchun umumiyligi holdagi analitik ifodani olamiz:

$$> \text{R0} := \text{solve}(\text{eq}, \text{R0});$$

$$\text{R0} := \frac{R1 \cdot R2 \cdot R3 \cdot R4}{R2 \cdot R3 \cdot R4 + R1 \cdot R3 \cdot R4 + R1 \cdot R2 \cdot R4 + R1 \cdot R2 \cdot R3}$$

Endi R1, R2, R3 va R4 ning aniq qiymatlari, masalan R1:=1, R2=2, R3=3 va R4=4 uchun R0 ning qiymatini hisoblashimiz mumkin:

$$> \text{R1} := 1; \text{R2} := 2; \text{R3} := 3; \text{R4} := 4; \text{R0}; \frac{12}{25} \quad \text{yoki} \quad > \text{evalf}(\%); .4800000000$$

Trigonometrik ifodalarni soddalashtirish funksiyasi simplify yordamida o'zgartirish:

$$> \text{eq1} := \cos(x)^4 + \sin(x)^3; \quad \text{eq1} := \cos(x)^4 + \sin(x)^3 > \text{simplify}(\text{eq1});$$

$$\cos(x)^4 + \sin(x)^3 - \sin(x) \cos(x)^2$$

Hosilani simvol ko'rinishda aniqlash: >  $y = \cos(x)^4 + \sin(x)^3$ ;

$$y = \cos(x)^4 + \sin(x)^3 > \text{dy/dx} = \text{diff}(\cos(x)^4 + \sin(x)^3, x);$$

$$\frac{dy}{dx} = -4 \cos(x)^3 \sin(x) + 3 \sin(x)^2 \cos(x)$$

Integralni simvol ko'rinishda hisoblash: >  $\text{Int}(1/\sqrt{1-x^2}, x=0..1)$ ;

$$\int_0^1 \frac{1}{\sqrt{1-x^2}} dx$$

$$> \text{int}(1/\sqrt{1-x^2}, x=0..1); \frac{1}{2}\pi$$

$$> \text{Int}(1/\sqrt{1-x^2}, x=0..1) = \text{int}(1/\sqrt{1-x^2}, x=0..1);$$

$$\int_0^1 \frac{1}{\sqrt{1-x^2}} dx = \frac{1}{2}\pi$$

Integralni matematik ko'rinishda chiqarish uchun ishlatiladigan Intfunksiyasiga e'tibor bering. U int funksiyasining inert shakli bo'lib hisoblanadi. Hamma inert funksiyalar bosh harf bilan boshlanadi, odatdagi funksiyalar esa kichik harflar bilan yoziladi.

Tenglamalarni yechish uchun solve funksiyasidan foydalilanadi. Quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasini yechishni ko'raylik:

$$x+y+2z=7 \quad x-3y=2 \quad y+7z=8$$

Tenglamalar sistemasini Maple qoidalariiga asosan kiritamiz va Enter ni bosib to'g'ri yozilganligini tekshirib olamiz

>  $\text{eqs1} := \{x+y+2*z=8, x-3*y=2, y+7*z=8\};$   
 $\text{eqs1} = \{x - 3y = 2, y + 7z = 8, x + y + 2z = 8\}$

Tenglamalar sistemasini yechish uchun solve funksiyasidan foydalanamiz

>  $\text{solve}(\text{eqs1}, \{x, y, z\});$   $\{x = 5, y = 1, z = 1\}$

Yuqoridagi tenglamalar sistemasini boshqacha yo'l bilan ham yechish mumkin

>  $\text{solve}(\{x+y+2*z=8, x-3*y=2, y+7*z=8\}, \{x, y, z\});$   $\{x = 5, y = 1, z = 1\}$

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. П.В.Сараев. "Основы использования математического пакета Maple в моделирование." Липецк, 2006 г.
2. Аладъев В. З. *"Системы компьютерной математики: MAPLE: искусство программирования."* М. Лаборатория базовых знаний, 2006, 792 с.
3. Аладъев В. З. Бойко В. К, Ровба Е. А. *"Программирование и разработка приложений в Maple."* Городно, Таллин, 2007, 458 с.
4. Говорухин В. Цибулин В. *"Компьютер в математическом исследовании."* Учебный курс. Питер, 2001, 624 с.
5. ogli Melikuziev, A. L. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. Academicia Globe: Inderscience Research, 3 (10), 126–128.

### Internet saytlari

1. <http://www.ziyo.net.uz>
2. [www.lib.homelinex.org/math](http://www.lib.homelinex.org/math)
3. [www.eknigu.com/lib/mathematics/](http://www.eknigu.com/lib/mathematics/)
4. [www.ekingu.com/info/M\\_mathematics/MC](http://www.ekingu.com/info/M_mathematics/MC)
5. [www.allmath.ru/highermath/](http://www.allmath.ru/highermath/)